

**JAMOATCHILIK NAZORATINI O'R NATISH-FUQAROLIK  
JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM SHARTI**  
(“MUAMMOLI KEYS” texnologiyasi va  
“SWOT” tahlil metodlari misolida)

*Sultonova G.M.*

*“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”*

*kafedrasi o'qituvchisi*

Bizga ma'lumki, Mustaqillikning ilk davridayoq O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan mamlakatning tarixiy rivojlanish an'analari, demokratik prinsiplar, rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganish asosida va xalqimiz dunyoqarashi, qolaversa mamlakat milliy manfaatlarini o'zida ifoda etgan fuqarolik jamiyatni, huquqiy davlat va va bozor munosabatlariga o'tish davrining nazariy asoslari ishlab chiqildi va u “O'zbek modeli”da mujassamlashdi. Ana shu asosda rivojlangan mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyatiga xos tamoyillar faqat xalqaro tajribalarda sinovlardan o'tganligi uchungina emas, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham mamlakatdagi islohotlar jarayonlariga bosqichma-bosqich tatbiq etila boshlandi. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyillarining amaliyotda izchil tatbiq etilishi shu yo'nalishda jamiyatning va davlat boshqaruvining barcha sohalarida demokratik talablarga mos ko'plab islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek “Biz muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov boshlab bergen keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo'lini og'ishmasdan qat'iy va izchil davom ettiramiz. Bu yo'l-erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir”<sup>1</sup>.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so'zi. 15-dekabr 2016 yil.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng ustuvor yo'nalishlaridan biri jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bo'lib, u fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, ayniqsa, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash hamda qonunlar ijrosi bo'yicha davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan olib borilayotgan ijtimoiy nazorat shakllaridan biridir.<sup>2</sup> Jamoatchilik nazorati bo'limgan yoki jamoatchilik nazorati etarli darajada kuchga ega bo'limgan mamlakatda fuqarolik jamiyat shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun mamlakatimiz Konstitutsiyasida jamoatchilik nazoratining mamlakatimiz fuqarolari davlat boshqaruvida ishtirok etishlarining muhim vositasi ekani e'tirof etilgan. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda e'lon qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi"da jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunni qabul qilish zarurligi alohida ta'kidlandi: "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati etdi."<sup>1</sup> deb ta'kidlangan edi.

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib, fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash orqali Konstitutsiyada kafolatlangan jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi qonuni (2018 yil 12 aprel, O'RQ-474-son) qabul qilindi.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar samarasiniyanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini

<sup>2</sup> O'tamurodov A va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati- Toshkent.: Turon zamin ziyo, 2017.96-bet.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonini (7.02.2017) qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiyalashga qaratilgan mazkur dasturulamal beshta yo'nalishdan iborat bo'lib, birinchi ustuvor yo'nalish davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ahamiyati o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik jamiyatni jamoatchilik nazorati rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishining sababi shundaki, tom ma'nodagi samarali, mustaqil va xolis jamoatchilik nazoratini iqtisodiy va siyosiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalarigina amalga oshirishi mumkin. Fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligi esa ayniqsa bu sohadagi faoliyatning samarali amalga oshishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda tom ma'noda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida qonunchilik tizimini takomillashtirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni va u asosida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi" qabul qilindi. Ushbu farmon va konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyat hayotini yuksaltirish belgilangan. Shu nuqtai nazardan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda fuqarolik jamiyati fanini oliy ta'lim tizimida o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'li davomida mamlakatimizda yangi fanlar shallanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 18-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

“Fuqarolik jamiyat” fanini o‘qitilishini joriy etish to‘g‘risida” gi 352-sonli buyrug‘iga asosan barcha ta’lim yo‘nalishlarida “Fuqarolik jamiyat” fanini o‘qitish belgilangan.<sup>3</sup>

Oliy o‘quv yurtlarida Fuqarolik jamiyatni fanidan “Jamoatchilik nazoratini o‘rnatish-fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti” mavzusini o‘qitishda Muammoli keys texnologiyasi va SWOT-tahlil metodidan foydalanib o‘tish darsning maqsadiga erishish uchun xizmat qiladi. Jamoatchilik nazorati mavzusi dolzarb va munozarali bo‘lganligi uchun Muammoli keys va SWOT-tahlil metodidan foydalanishning afzallikkari ko‘p. Muammoli keys masalaning dolzarbliji, ahamiyati va muammoning echimlarini, SWOT-tahlil metodi esa masalaning ichki va tashqi tomonlarining kuchli va kuchsiz tomonlari hamda imkoniyatlari va zaifligini ohib beradi.

“Jamoatchilik nazoratini o‘rnatish-fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti” mavzusining bugungi kunda dolzarbliji va uni o‘qitishda Muammoli keys texnologiyasi va SWOT tahlil metodining tanlanishi ahamiyatligigi quyidagilar bilan asoslanadi:

Birinchidan, bugungi kunda jamoatchilik nazoratining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini belgilab beradi;

Ikkinchidan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi muammoli vaziyatlarni tahlil etadi va ularning echimlarini bartaraf etishda taklif va tavsiyalar beriladi;

Uchinchidan, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyati ochiqligi masalalarida ma’lum bir munozarali savollar mavjud;

To‘rtinchidan, Muammoli keys texnologiyasi va SWOT tahlil metodi o‘rganilayotgan ob’ekt va predmetlarning ichki va tashqi jihatlarini, muammo va echimlarini tahlil qilishga qaratilgan;

Demak, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish fuqarolik jamiyatni rivojlantirishning muhim sharti masalasini o‘rganish va shu asosda talabalarga bilim berishda biz

<sup>3</sup>Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig‘i va Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligining 2015 yil 18-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida “Fuqarolik jamiyat” fanini o‘qitilishini joriy etish to‘g‘risida” gi 352-sonli buyrug‘i

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Muammoli keys texnologiyasi va SWOT tahlil metodlaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligi fuqarolik jamiyatiyatidagi o‘rni va ahamiyatiga ta’siri masalasini tadqiq etish;
- fuqarolik jamiyatida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning nazariy huquqiy asoslari mazmun-mohiyati oolib berish;
- Fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyatini yoritib berish;
- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyati ochiqligining jamiyatda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar echimidagi o‘zaro hamkorligining ahamiyatini oolib berish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning ta’lim jarayoni, xususan, fuqarolik jamiyati fanini o‘qitishdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish;
- Muammoli keys texnologiyasi va SWOT tahlil metodlari va ulardan pedagogikada foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asoslash;
- Muammoli keys texnologiyasi va SWOT tahlil metodlaridan jamoatchilik nazorati masalasini o‘qitishda qo‘llashning afzalliklarini ko‘rsatib berish;

“Jamoatchilik nazoratini o‘rnatish-fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti” mavzusini o‘qitishda Muammoli keys texnologiyasi va SWOT tahlil metodidan foydalanish oliy ta’lim muassasalarida Fuqarolik jamiyati fanidan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘qitishda qo‘llash mumkin. Uning nazariy xulosalari Fuqarolik jamiyati fanidan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llashda asos bo‘lishi mumkin. Fuqarolik jamiyati fanidan talabalarni seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.